

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi haqida so'zlashamiz



Bizning Vatanimiz – O'zbekiston. O'zbekiston Respublikasi o'z ramzlariga ega. Bular – gerb, bayroq va madhiya.

Madhiya davlatning asosiy qo'shig'idir.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi 1992-yil 10-dekabrda qabul qilingan.

Shoir she'r yozadi, kompozitor va bastakorlar unga musiqa bastalaydi. Shunday qilib, qo'shiq yaratiladi. Madhiya matnini O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov yozgan, musiqasini kompozitor Mutal Burhonov bastalagan.

Davlatimiz madhiyasida O'zbekiston bizning ona yerimiz ekanligi kuylanadi. Bu zaminda ko'ngli ochiq, ahil va kuchli insonlar yashaydi. Biz mamlakatimizni sevamiz, u bilan faxrlanamiz va uni doim asrab-avaylaymiz.

Bizning O'zbekiston juda go'zal, quyoshli va sevimli o'lka. Vatanimiz yanada kuchli, xalqimiz esa yanada baxtli bo'lishiga ishonamiz.



O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi



O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasini kuylayotganda o'ng qo'lingizni ko'ksingizga qo'yib, qaddingizni tik tuting.



1. Madhiya nima?
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining **kompozitori** kim?
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi matnining **muallifi** kim?

